

Mineral o'g'itlar 124 tumandagi vakolatli omborlardan yetkazib berilmoqda

// 06.12.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mineral-o-g-itlar-124-tumandagi-vakolatli-omborlardan-yetkazib-berilmoqda>



Qishloq xo'jaligida natijaning yuqori bo'lishi va mo'l hosil yetishtirilishi sohaga sifatli mineral o'g'itlarning o'z vaqtidava kerakli miqdorda yetkazib berilishi bilan bevosita bog'liq.

"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan mineral o'g'itlarni birjadan sotib olish tartibini fermerlarga tushuntirish, brokerlarga qanday murojaat qilish, mineral o'g'itlarni birja savdolari orqali sotib olish, tiketni korxonaga yetkazish yoki ushbu tiket orqali omborxonadan yuklash xizmatlari tizimi va tartibini tushuntirish yuzasidan qator choralar ko'rildi.

Natijada j**92,6mln tonna,2,2mln tonna242ming tonna149 ming tonna1,5mln tonna4628,1**likyoki**57,61,3mln tonna 90,0ming tonna74,0ming tonna**

Qishloq xo'jaligiga 2024-yil g'alla va paxta hosili uchun (sof holda) **358,2 ming tonna** azotli, **36,4 ming tonna** fosforli va **18,5 ming tonna** kaliyli mineral o'g'itlar yetkazib berildi.

Joriy yilning 12-fevral kuni Prezidentimiz raisligida qishloq xo'jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida aynan mineral o'g'itlarni yetkazib berish yo'nalishida qator vazifalar belgilab berilgan edi. Ularning ijrosi doirasida fermer xo'jaliklariga qulayliklar yaratish maqsadida kimyo korxonalari tomonidan respublikaning **124 ta** tumanida jami **275 ta 1,7 mln tonna** sig'imga ega mineral o'g'it vakolatli omborlari tashkil qilinib, mineral o'g'itlar ushbu omborlardan birja savdolariga qo'yib borildi.

Shuningdek, joriy yilning 27-fevralidan boshlab, birja savdolariga mineral o'g'itlarning boshlang'ich narxlaridan o'rtacha **10%** gacha pasaytirib xarid qilish auksion tartibida savdoga qo'yish mexanizmi joriy etildi.

2024-yildan boshlab joylardagi omborlardan klaster va fermerlarga mineral o'g'itni tashishda transportni logistika portalida majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibi bekor qilindi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati